

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI TASHQI BOZORLARGA YETKAZIB BERISHDA TIJORAT STANDARTLARINING O'RNI

Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası katta o'qituvchisi, PhD



Fayzullayev Shuhrat Sherari o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini oshirishda standartlarning muhim ahamiyat kasb etishi, tashqi bozorlarda korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan tashqi savdodagi eksport hajmini oshirish hamda uning geografiasini kengaytirishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tijorat standarti, savdo tovar aylanmasi, sifat, eksport.

Аннотация: В статье анализируется роль торговых стандартов в увеличении экспорта сельскохозяйственной продукции, производимой в Узбекистане, в обеспечении конкурентоспособности предприятий на внешних рынках, а также в увеличении объемов экспорта во внешней торговле и в расширении географии экспорта, что является одной из приоритетных задач социально-экономического развития политики.

Ключевые слова: сельскохозяйственная продукция, торговый стандарт, товарооборот, качество, экспорт.

Abstract: The article analyzes the importance of commercial standards in increasing the export of agricultural products produced in Uzbekistan, in ensuring the competitiveness of enterprises in foreign markets, and in increasing the volume of exports in foreign trade and in expanding its geography, which is one of the priority tasks of socio-economic policy.

Key words: agricultural products, commercial standard, trade turnover, quality, export.

KIRISH

Jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlari savdosi 205 milliard dollarni tashkil etgan bir paytda, respublikamizning mazkur bozordagi ulushi bir foizga ham yetmayapti. Ushbu mahsulotlarning mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi esa atigi 7 foizni tashkil etadi ^[1].

Respublikaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi salohiyatini yanada oshirish, olib borilayotgan islohotlar va zamon talabiga to'liq javob beradigan darajada ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, mahsulot sifatining yuqori bo'lishini ta'minlashda standartlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezident



Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Standart bo'lmasa eksport bo'lmaydi" [2]. So'nggi yillarda mamlakatimizda standartlashtirish ishlarining xarakteri sezilarli darajada o'zgardi. Agar ilgari standartlashtirishning asosiy maqsadi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish qoidalarini tartibga solish bo'lsa, hozirda asosiy e'tibor mahsulotlarning sifati, ishonchiligi va chidamliligiga yuqori talablarni belgilashga va bu ko'rsatkichlarni milliy iqtisodiyot va xalqaro bozorlarda ishlab chiqarishning ortib borayotgan talablariga muvofiqlashtirishga qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mattias Ganslendt va Jeyms R.Markuqen tomonidan olib borilgan "Standards and related regulations in international trade: a modeling approach" nomli tadqiqot ishida "Savdo siyosati kun tartibida standartlar va texnik reglamentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har qanday holatda ham, standartlar savdo va milliy farovonlikka ta'sir qilishi sababli ularni yanada chuqurroq o'rganish lozim".

Petr Cheyz talqinicha "Standartlar iqtisodda mahsulot va jarayonlarda umumiy e'tirof etilgan xavfsizlik va o'zaro muvofiqlikni ta'minlash uchun mavjud bo'lib, tovarlar va xizmatlar xaridorlarining ma'lum darajadagi sifatga ega bo'lishlariga ishonchlarini his qilishlarini osonlashtiradi. Bu xaridorlar va sotuvchilar bir-birlarini tanimasliklari mumkin bo'lgan xalqaro savdoda yanada muhimroq bo'ladi.

Esteban Ferro, Jon S. Vilson, Sunixiro Otsukilarning ta'kidlashlaricha "Firma o'z ishlab chiqarishini tashqi bozor standartlariga moslashtirgandan so'ng, bu standartlar ushbu bozorga eksport qilish intensivligiga ta'sir qilmaydi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli tahlil asosida statistik guruhlash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqida "premium" toifasiga kirmaydigan meva va sabzavotlarga talab deyarli yo'q. AQSH va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlarda xuddi shunday vaziyat. Bundan tashqari, har bir mamlakatda mevalarning turli xususiyatlariga nisbatan o'ziga xos ularning rangi, ta'mi, kalibri va boshqa xususiyatlari bo'yicha talablar va ehtiyojlar mavjud.

Shu o'rinda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan 2017-yilda amalga kiritilgan "UNECE STANDARD FFV-02" o'rik mahsulotining sifatini nazorat qilish to'g'risidagi marketing va tijorat standartida o'rik mahsuloti uchun o'rnatilgan talablar va ularning sifat sinfi belgilangan.

1-jadval: "UNECE STANDARD FFV-02" marketing va tijorat standartida o'rik uchun belgilangan talablar [4]

№	Mahsulotga qo'yilgan talab	Standart bo'yicha mahsulot uchun belgilangan talab
1	Minimum talablar	Butun, toza, begona moddalar va har xil turdagi zararkunandalardan holi, meva zararkunandalar tomonidan zarar yetkazilmagan, tashqi namlikdan holi, begona hid va ta'mga ega bo'lmashligi, tashish uchun bardoshli hamda belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib kelishi kerak.
2	Pishganlik darajasi	O'rikning rivojlanish va yetuklik holati ularga pishish jarayonini davom ettirish va qoniqarli yetilish darajasiga erishishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak
3	Ekstra nav	Ekstra sinfdagi o'riklar eng yuqori sifatda bo'lishi kerak. Meva go'shti mukammal darajada sog'lom bo'lishi kerak. Ular nuqsonlardan holi bo'lishi kerak. Mahsulotni umumiy ko'rinishiga, sifatiga, saqlanishiga ta'sir qilmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlar bundan mustasno.
4	Birinchi nav	Meva go'shti mukammal darajada sog'lom bo'lishi kerak. Biroq, quyidagi kichik nuqsonlarga yo'l qo'yilishi mumkin: •shaklidagi yengil nuqson •rivojlanishdagi yengil nuqson •umumiy sirt maydonining 1 sm ² dan ortiq bo'lmagan yengil bosim belgilari •yengil teri nuqsonlari, shu jumladan, ko'p cho'zilmagan yengil yoriqlardan: •cho'zilgan shakldagi nuqsonlar uchun uzunligi •cho'zilgan shakldagi nuqsonlar uchun uzunligi 1 sm ² •boshqa nuqsonlar uchun umumiy sirt maydonining 0,5 sm ² •mevadagi kovak darajasi umumiy sirt maydonining 10 foizi.




5	Ikkinchi nav	Meva go'shti katta nuqsonlardan holi bo'lishi kerak. O'rik o'zining muhimligini saqlab qolish sharti bilan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin •shakldagi nuqsonlar •rivojlanish nuqsonlari, shu jumladan, parchalangan toshlar, meva yopiq va go'shti sog'lom va rangi o'zgarmagan •umumiy sirt maydonining 1 sm² dan ko'p bo'lmagan ko'karishlar •teri nuqsonlari, shu jumladan, ko'p cho'zilmagan yengil yoriqlardan: •cho'zilgan shakldagi nuqsonlar uchun uzunligi 2 sm •boshqa nuqsonlar uchun umumiy sirt maydoni 1 sm² •mevadagi kovak darajasi umumiy sirt maydonining 10 foizi.
6	Hajmga bo'lgan talab	Minimal o'lcham - 30 mm. Hajmining bir xilligini ta'minlash uchun bir xil paketdagi mahsulotlar "Ekstra" sinfda 5 mm dan, I va II sinflarda (agar o'lchamli bo'lsa) 10 mm o'rtaqidagi o'lcham oralig'ida bo'lishi kerak. "Ekstra" va "I" sinflar uchun o'lchamdagi bir xillik majburiy hisoblanadi.
7	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar	Mahsulotni har bir partiyasini realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida mahsulotning navidan kelib chiqib, sifat va hajm bo'yicha talablarga javob bermaydigan ma'lum bir kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.
	Ekstra nav	Jami o'riklar miqdori va og'irligi ko'ra 5% ushbu nav talablariga nomuvofiq bo'lgan, lekin birinchi nav talablariga javob beruvchi o'riklar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu yo'l qo'yishlar chegarasida, 0.5% dan ko'p bo'lmagan miqdorida ikkinchi nav talablariga javob beruvchi mahsulot bo'lishi mumkin.
	Birinchi nav	Jami o'riklar miqdori va og'irligi ko'ra 10 % ushbu nav talablariga nomuvofiq bo'lgan, lekin ikkinchi nav talablariga javob beruvchi o'riklar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu yo'l qo'yishlar chegarasida 1% dan ko'p bo'lmagan miqdorda ham ikkinchi nav talablariga javob beruvchi, ham minimal talablarga javob beruvchi mahsulot yoki degradatsiyaga uchragan mahsulot bo'lishi mumkin.
	Ikkinchi nav	Jami o'riklar miqdori va og'irligi ko'ra 10 % ushbu nav talablariga nomuvofiq bo'lgan va minimal talablarga javob beruvchi o'riklar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu yo'l qo'yishlar chegarasida, umumiy miqdorning 2% dan ko'p bo'lmagan degradatsiyaga uchragan mahsulot bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu yo'l qo'yishlar chegarasida kesishgan qismlarida yoriqlari bo'lishiga va ezilgan danakli mevalar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi
8	Hajm bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar	Barcha turdagi o'rik sinflari uchun hajm bo'yicha belgilangan talablarga javob bermaydigan mahsulot umumiy miqdorning 10 foizidan ko'p bo'lmasligi zarur.
9	Bir xilligiga bo'lgan talab	Har bir paketning tarkibi bir xil bo'lishi va xilma-xilligi, sifati va o'lchami bir xil bo'lgan o'rik larni o'z ichiga olishi zarur. Shuningdek, "Ekstra" sinf uchun mahsulot ranglari bir xil bo'lishi kerak. Paket tarkibining ko'rinadigan qismi butun tarkibni ifodalashi kerak.
10	Qadoqlashga qo'yilgan talablar	O'riklar to'liq himoya qilinadigan tarzda qadoqlangan bo'lishi kerak. Paket toza va mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki zarar yetkazilishini oldini oladigan bo'lishi kerak. Savdo belgilariga ega bo'lgan muxrlar toksik bo'lmagan siyoh yoki yelim bilan qilingan bo'lishi hamda chop etish yoki etiketlash sharti bilan ruhsat etiladi Mahsulotga alohida yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda ular yelimning izlarini qolmasligi va meva terisi nuqsonlariga olib kelmasligi shart. Paketlarda begona moddalar bo'lmasligi kerak.
11	Yorliqlash talablari	Har bir qadoqlangan mahsulot paketida bir tomonda guruhlangan, harflar bilan ifodalangan, o'qiladigan va o'chirilmaydigan tarzda belgilangan va tashqaridan ko'rinadigan quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: •Eksport qiluvchi tashkilot nomi; •Mahsulot nomi ("O'rik". Agar mahsulot tashqi tarafidan ko'rinmasa o'rik mahsulotini bildiruvchi nom yoziladi) •Mahsulot "Ekstra" yoki "I" sinfga tegishli bo'lsa, uning sinfi nomi ham ko'rsatilishi lozim); •Ishlab chiqarilgan mamlakat nomi (ishlab chiqarilgan mamlakat va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi) •Tijorat sinfi (navi, hajmi, minimum va maksimum diametri ko'rsatilishi kerak) •Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Tashqi bozorlarga yetkazib beriladigan o'rik mahsuloti xorijiy xaridorning mahsulot tarqatish markazlarida yoki chakana savdo tarmoqlarining omborxonalarida o'rik mahsulotining sifatini nazorat qilish to'g'risidagi marketing va tijorat standartida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi ^[5]. Shuningdek, mahsulot yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida navlariga qarab qabul qilinadi.



O'rim-yig'imning muhim nuqtasi bu mevaning yetukligini aniqlashdir. Quyida 2.4-rasmda o'rik pishishining besh bosqichi haqida ma'lumot berilgan ^[6]. O'rik mahsulotlarini terib olish bo'yicha eng yaxshi amaliyotga ko'ra, 3 va 4-bosqichlardagi o'rikning yetilish va pishish holatida mahsulotni terib olish maqbul hisoblanadi. Beshinchi tartibdagi o'rikning iste'mol yetukligi eksport uchun mo'ljallanmagan, ammo mahalliy bozorda sotish, qayta ishlash uchun eng yaxshi, shuningdek, fruktoza darajasi yuqori hisoblanadi.



2.4-rasm: O'rikning yetilish va pishish darajasidagi farqlar

Mahsulot sifatini saqlab qolish uchun mevani ehtiyotkorlik bilan yig'ish, navlarga ajratish joyigacha ehtiyotkorlik bilan transportda tashish tavsiya etiladi. Bu tajriba zamonaviy bog'dorchilikda keng qo'llanilib kelinmoqda. Quvonarli joyi shundaki, O'zbekistonda mevalarni yig'ishni zamonaviy ko'rinishiga ega bo'lgan xo'jalik, shuningdek 2017-yillarda o'riklarni navlarga ajratish va kalibrlash liniyasini yo'lga qo'ygan korxonalar mavjud.

Quyidagi jadval orqali o'rik mahsulotlarini zamonaviy yig'ish, navlarga ajratish va kalibrlash liniyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni ko'rib chiqamiz.

2-jadval: 2021 yilda o'rikni zamonaviy yig'ish va navlarga ajratish liniyasini yo'lga qo'ygan korxonalar tahlili ^[7]

№	Korxona nomi	Eksport qilingan davlat	Hudud nomi	Eksport miqdori (ming dollar)
1	Parvoz grand business MCHJ	Rossiya	Toshkent vil.	116,4
2	Havvo noble MCHJ	Qozog'iston	Namangan	351,5
3	Almaz eco profi food	Rossiya	Samarqand	506,0
4	Eco orient group MCHJ	Европа давлатлари	Samarqand	159,5
5	Agroluch 777 MCHJ	Qirg'iziston	Sirdaryo	92,5
6	Manzana MCHJ	Yevropa davlatlari	Farg'ona	151,4
7	Agra sim MCHJ	Qirg'iziston	Farg'ona	126,4
8	Maroqand meva-sabzavot MCHJ	Qozog'iston	Samarqand	187,7
9	Export bek baraka XK	Rossiya	Farg'ona	123,4
10	Vodiy holding meva XK	Rossiya, Qozog'iston	Farg'ona	209,4
11	Quva umid agro DX	Rossiya	Farg'ona	179,1
12	Oren agro export business MCHJ	Rossiya	Farg'ona	162,5
13	Sunny fruit production MCHJ	Osiyo va Yevropa davlatlari	Toshkent	327,1
14	Expo-Chirchiq MCHJ	Osiyo davlatlari	Surxondaryo	142,4
15	All retail plus MCHJ	Rossiya, Sloveniya	Toshkent vil.	403,1
16	Ohangaron Rustam agro MCHJ	Rossiya	Toshkent vil.	61,4
17	Well impex plus MCHJ	Rossiya, Qozog'iston	Toshkent	125,7
18	Begzad Dauletbayev MCHJ	Qozog'iston	Qoraqalpog'iston	51,9
19	New exim power MCHJ	Afg'oniston, Pokiston	Farg'ona	75,6
20	Loko agroexim MCHJ	Rossiya, Qozog'iston	Andijon	92,6



Yuqoridagi standart talablari asosida mahsulot eksport qilgan korxonalarning eksport geografiyasi va eksport miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz (2-jadval).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2021 yilning o'rik mavsumi davomida 8,25 mln. AQSH dollariga teng miqdoridagi o'rik dunyoning 8 ta davlati Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Chexiya, BAA, Germaniya, Ukraina va Mongoliyaga eksport qilingan.

Shundan, "Parvoz grand business" MCHJ tomonidan 116,4 ming AQSH dollari, "Navvo noble" MCHJ 351,5 ming AQSH dollari, "Sunny fruit production" MCHJ 327,1 ming AQSH dollari, "Manzana" MCHJ 151,4 ming AQSH dollari, "All retail plus" MCHJ 403,1 ming AQSH dollari, "Agra sim" MCHJ 126,4 ming AQSH dollari miqdoridagi o'rik mahsulotini tashqi bozorlarga yetkazib bergan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, o'rik eksporti hajmini yanada oshirish va yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish maqsadida o'rikning sifat talablarini qondirish uchun to'g'ri agrotexnik tadbirlarni o'tkazish va ularga rioya qilish hamda o'simliklarni himoya qilish vositalaridan o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish bilan bir qatorda standart talablariga ham rioya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha "daladan dasturxongacha" tamoyili asosida tashqi bozorlarga tayyor raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish, ularning eksport salohiyatini yanada oshirishda maqsad qilingan bozorda belgilangan talablarni o'rganish orqali tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish eng samarali yo'l hisoblanadi. Shuningdek, tashqi bozorlarga xalqaro talab va me'yorlarga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar bilan chiqishda marketingning iste'molchiga yo'naltirilganlik tamoyilidan samarali foydalanish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хожиев Элшод Ёқуб ўғли. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи ва ишлаб чиқарувчи корхоналарининг экспорт маркетинг имкониятларини баҳолаш. "Инновацион иқтисодиёт шароитида замонавий маркетинг концепцияларидан фойдаланиш" мавзусидаги республика онлайн илмий-амалий конференцияси. Илмий мақолалар ва тезислар тўплами. Тошкент ш. 2020 йил 11 ноябр.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2021 йил 27 апрель куни "Эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарида амалга оширилаётган инвестиция лойиҳалари" муҳокамаси юзасидан ўтказилган йиғилишидаги нутқи.
3. Андрей Ярмук – БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО) инвестиция бўлимининг иқтисодчиси, қишлоқ хўжалиги иқтисоди ва менежменти бўйича етакчи мутахассиснинг Uzanalytics.com сайти муҳбири томонидан тайёрланган Ўзбекистонда мева-сабзавотлар экспортини ривожлантириш истиқболлари, соҳадаги мавжуд муаммолар, ишлаб чиқарувчи ва экспортчиларнинг одатий хатолари ҳақидаги интервьюси
4. Э.Хожиев//Ўрик маҳсулотлари экспортини оширишда стандарт меъёрларига мослиги бўйича маркетинг тадқиқотларини ўтказиш // "International Scientific Conference on Raising a New generation in Era of Global Transformation; Challenges and Prospects -2022" April 1st 2022, Bucheon University, Tashkent. – 205 б.
5. Эртапишар ўрик ва кеч пишар олхўри маҳсулоти учун салоҳиятли харидоргир бозорлар бўйича тадқиқот. CAN-DY IV лойиҳаси асосида олиб борилган тадқиқот. Марказий Осиё, 2017.
6. Carlos H. Crisosto, Elizabeth J. Mitcham and Adel A. Kader Department of Plant Sciences, University of California, Davis
7. Хожиев Э.Ё. "Ўрик маҳсулотлари экспортини оширишда маркетинг тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштириш" мавзусидаги иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент, 2023. 78-б.
8. Файзуллаев, Ш. Ш. У., & Шадманкулова, Д. А. (2019). Теоретическое и правовое значение наращивания потенциала экспорта сельскохозяйственных предприятий. Вестник науки и образования, (24-2 (78)), 14-17.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

